ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Termiz Davlat Pedagogika Instituti talabasi
Abdurahmonova Sevinch, Azizova Ganjina
azizovaganjina@gmail.com

Annotasiya: Ushbu esseda pedagogik mahorat tushunchasining mazmuni, mohiyati va uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari — pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, kommunikativ kompetensiya, shaxsiy fazilatlar va kasbiy kompetensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining mahorati ta'lim sifatiga qanday ta'sir ko'rsatishi hamda uni rivojlantirishning metodik yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, o'qituvchi, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, kommunikativ kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ta'lim sifati, kreativlik, zamonaviy pedagog.

Kirish

Pedagogik jarayon murakkab, ko'p qirrali va mas'uliyatli faoliyat bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchidan nafaqat bilim, balki yuksak kasbiy mahorat talab etiladi. Shu bois pedagogik mahorat tushunchasi ta'lim tizimida alohida o'rin egallaydi. Pedagogik mahorat — bu o'qituvchining bilim, ko'nikma, pedagogik qobiliyat va shaxsiy fazilatlari uyg'unlashgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatidir. Avvalo, pedagogik mahorat o'qituvchining o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan boshlanadi. Faqat puxta bilimga ega pedagoggina uni o'quvchilarga tushunarli, qiziqarli va ijodiy shaklda yetkazib bera oladi. Bilimning puxtaligi o'qituvchining dars jarayonida erkin fikr yuritishiga, o'quvchilar savollariga mustaqil javob berishiga va vaziyatni to'g'ri boshqara olishiga imkon yaratadi.Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu pedagogik qobiliyat hisoblanadi. Pedagogning kuzatuvchanligi, nutq madaniyati, muloqotga kirisha olish qobiliyati, bolalarning psixologik holatini sezish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash — bularning barchasi pedagogik qobiliyatni belgilaydi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiya — ya'ni o'quvchi bilan to'g'ri muloqot o'rnatish, unga individual yondashish, ijobiy psixologik muhit yarata bilish o'qituvchi mahoratining ajralmas qismidir.

Asosiy qism

Ta'lim tizimining samaradorligi, avvalo, pedagog faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi – bu nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatning ertangi kunini shakllantiruvchi shaxsdir. Shu sababdan pedagogik mahorat tushunchasi pedagogning eng muhim sifatlari va kasbiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv davrida ta'lim jarayoniga bo'lgan talablar ortib borar ekan, o'qituvchining faqat o'z fanini bilishi yetarli bo'lmay, balki pedagogik texnologiyalar, psixologik yondashuvlar, kommunikativ mahorat va tashkiliy ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.Pedagogik mahoratning mohiyatini chuqur anglash, uni amaliyotda qo'llash o'qituvchining kasbiy yuksalishiga, o'quvchilar rivojlanishiga va ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishiga xizmat qiladi.Pedagogik mahorat – bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar bilan muloqot o'rnatish, didaktik vositalardan to'g'ri foydalanish, shuningdek pedagogik jarayonni boshqarish borasidagi yuqori darajadagi kasbiy qobiliyatidir. U

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

pedagogning shaxsiy fazilatlari va metodik bilimlarining kompleks uyg‘unlashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik mahorat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-Pedagogik bilimlar: pedagogika, psixologiya, metodika, didaktika.

-Kasbiy ko‘nikmalar: darsni rejalash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, baholash.

-Shaxsiy fazilatlar: sabr-toqat, mulohazalilik, talabchanlik, xushmuomalalik.

-Kommunikativ qobiliyat: o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish.

-Ijodkorlik: yangi metodlar, innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari:

Pedagogik mahorat ko‘p qirrali bo‘lib, bir qancha komponentlardan tashkil topadi:

a) Metodik mahoratO‘qituvchining o‘quv jarayonini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil eta bilishi, zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanishi. Bunga interfaol metodlar, STEAM yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta’lim kabi yondashuvlar kiradi.

b) Pedagogik texnika

Bu o‘qituvchining nutqi, ovoz ohangi, tana harakati, darsni boshqarish uslubi kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik texnikaning yuksak darajada bo‘lishi darsning samaradorligini oshiradi.

c) Psixologik tayyorgarlik

Har bir o‘quvchi individual bo‘lgani uchun o‘qituvchi psixologik yondashuvlarni bilishi zarur. O‘quvchilar temperamentini aniqlash, motivatsiya yaratish, konfliktlarni oldini olish pedagogik mahoratning muhim qismidir.

d) Innovatsion kompetensiya

Zamonaviy pedagog texnologiyalarni bilishi, axborot texnologiyalaridan faol foydalanishi, darslarni multimedia vositalari bilan boyitishi lozim. Bu esa ta’limning sifatini oshiradi va bilim berish jarayonini qiziqarli qiladi.

Pedagogik mahoratning ahamiyati

Pedagogik mahorat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Yuqori pedagogik mahoratga ega pedagog:

-o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;

-ta’lim sifati va motivatsiyani oshiradi;

-dars jarayonini qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etadi;

-o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Shuningdek, pedagogik mahorat o‘qituvchining kasbiy obro‘sini oshiradi, o‘quvchilar tomonidan hurmat qilinishiga sabab bo‘ladi.Pedagogik mahoratning asosiy poydevorini kasbga doir bilimlartashkil etadi. Bunday bilimlar mazmuni esa, o‘qitilayotgan fan mazmunimetodikasi, pedagogikasi va psixologiyasiga doir bilimlarni o‘z ichigaoladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining “Ta’limto‘g‘risida”gi Qonunida (44-modda): “Tegishli ma’lumoti, kasbiytayyorgarligi, boy va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega”, deb ta’kidlangan.“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablarini bajarish pedagogik faoliyatsamaradorligini oshirishdir. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirishni zamon talab etadi.O‘qituvchilik kasbi sharafli va o‘ziga xos murakkab bo‘lib,pedagogik mahoratni chuqur egallamasdan yaxshi pedagog bo‘lish qiyin. Pedagogik mahorat fanini esa ilg‘or o‘qituvchilar va olimlarning amaliy va nazariy bilimlarining yig‘indisi desak adashmaymiz. Sharq pedagogikasi va pedagogik mahorati ming yillik tarixga ega bo‘lib,nazm mulkining sultoni A. Navoiy, A. Jomiy va boshqalarning asarlarida nutq, notiqlik san’ati, madaniyati haqida, so‘z va uning insonruhiyatiga ta’siri haqida juda ko‘p qimmatli

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

durdona fikrlari mavjud.Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo‘ladi. Ba’zi taniqli ruhshunoslarning fikricha, (F.Gonobolin, N.Kuzmina) pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi:

- o‘rtaga tusha bilish;- tashkilotchilik;- o‘zini idora eta bilish;
- mo‘ljal chamalay bilish;- kuchlilik, zehnlilik;- faoliyatga ijodiy tomondan yondashish.Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo‘lgan insonparvarlik nuqtai nazardan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri hisoblanib, u o‘qituvchidan o‘quvchilar bilan muomala qilganda zarur so‘z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o‘tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarga osoyishtalikni va aniq fikr yuritish,tahlil qilish qobiliyatini saqlash imkonini beradi. Haqiqiy pedagogik ta’sir ko‘rsatishda o‘qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko‘rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika,harakat bilan birga bo‘ladi. Pedagogik texnika pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning jinsi, yoshi, mijozi, fe’l-atvori,anatomik-psixologik xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa

Pedagogik mahorat – o‘qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishida eng muhim omildir. U ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning to‘laqonli rivojlanishini ta’minlash va zamon talablari asosida bilim berish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchilarni jamiyatga foydali, ma’naviy yetuk shaxslar sifatida tarbiyalaydi. Shu bois pedagoglar o‘z ustida muntazam ishlashi, ilmiy yangiliklardan boxabar bo‘lishi va pedagogik ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.1. Abdullayev J. “Pedagogika asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar jamiyati, 2020.
2. Hasanboeva O. va boshqalar. “Pedagogik mahorat”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. – Toshkent, 2021.
4. Sharipov Sh. “O‘qituvchi pedagogik mahorati”. – Toshkent: Fan, 2018.